

МАHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JADID MAKTABLARIDAGI XIZMATLARI

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

Shukurova Dilnoza

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yetakchi namoyondasi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning qisqacha hayot yo‘li, jadid maktabi, darsliklari, o‘z davrining ta’lim tizimiga qo‘shtgan ulkan hissasi, xalqni bilimli qilishdagi bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘li haqida muxtasar ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jadid, taraqqiyot, milliy ozodlik, mustaqillik, yangi usul maktablari, darslik, mirza, “Asbobi savod”, “Kitobat ul-atfol”, islohot, Vatan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о коротком жизненном пути Махмудходжи Бехбуди, ведущего представителя джадидского движения, о джадидской школе, учебниках, его большом вкладе в систему образования своего времени и его нелегком пути просвещения народа. информация представлена.

Ключевые слова: современность, развитие, национальное освобождение, независимость, новометодные школы, учебник, мирза, «Асбоби Савад», «Китабат ул-атфол», реформа, Родина

Abstract: This article is about the short life path of Mahmudhoja Behbudi, the leading representative of the Jadid movement, about the Jadid school, textbooks, his great contribution to the education system of his time, and his difficult path to educate the people brief information is provided.

Key words: modernity, development, national liberation, independence, new method schools, textbook, mirza, "Asbobi Sawad", "Kitabat ul-atfol", reform, Homeland.

Jadid maktablariga o‘zining ulkan hissasini qo‘shtgan dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyoziyxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780 –1785) Samarqandga kelib qolgan. U dastlab Samarqanddagi madrasada, keyinchalik Buxoroda tahsil olgan.

An'anaviy tahsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabr-matonat bilan ishlab shariatning yuksak maqomlari – “Mirza”, “Qozi”, keyinchalik mufti darajasigacha ko'tarilgan.

1899-1900-yillar Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safari davomida Arabiston, Misr, Turkiya va boshqa ko'plar yurtlarda bo'ladi. Ushbu safari sakkiz oydan oshganligi haqida ma'lumot yozib qoldiradi. Behbudiy 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburg, 1906-yilda esa Qozon, Ufa va Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular shunchaki sayohat emas balki xizmat safari edi. Uning hech bir safari, dunyo ko'rish, kezishi besamar ketmaydi. Ushbu vaqt mobaynida Mahmudxo'ja Behbudiy u yerdagi yangi usul mакtablari bilan tanishadi, tatar ziyyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri shakllanib boradi. Samarqand yaqinidagi Halvoysi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lmish yangi maktab ochishga muvaffaq bo'lishadi. Jadid mакtablarining an'anaviy madrasalardan farqi shunda ediki an'anaviy madrasalarda o'qitish yodlash va qaytarishga asoslangan bo'lsa, jadid mакtablarida interaktiv va amaliy usullar qo'llanilardi. Behbudiy dars jarayonida savol-javob va amaliy mashg'ulotlarni joriy qildi. Bu usul o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yordam berdi.

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati xalarimiz tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi-zamonaviy maktab, matbuot, nashriya, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat sifatida o'z tarafdarlariga ega bo'lib, faoliyatini olib borgan. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkistondagi milliy- ozodlik harakatining milliy mafkurasi, xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandı.

Mahmudxo'ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma'rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid mакtablari tarmog'ini kengaytirish, ular uchun o'quv dastur va darsliklar yaratish, o'quvchilarni o'quv qurollari bilan ta'minlash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan jiddiy shug'ullandi. Bundan tashqari mакtabga kitob o'qish uchun kelgan har bir bolani shirin choy bilan mukofotlaydi. Jadid mакtabi 4 yillik bo'lib, uni bitirgan bolalardan imtihon asosida iqtidorlilarini saralab xorijiy mamlakatlarga o'qishga jo'natgan. Bolalarni chet elga o'qishga yuborishdan ko'zlangan maqsad mustamlakaga aylangan yurtimizni, undagi sodda, ishonuvchan odamlarga bilim berish, milliy mafkurani shakllantirish edi. Bularning barchasini Mahmudxo'ja Behbudiy o'z mablag'lari evaziga qiladi va mакtabda o'qish, kitoblar, o'qish uchun zarur buyumlar o'quvchilarga mutlaqo royon edi.

1904-1909-yillarda u o'zbek va tojik tillarida “Рисолаи асбоби савод” (Savod chiqarish kitobi), “Мунтахаби ҷуғрофияи умумӣ” (Qisqacha umumi geografiya),

“Китобат ул-атфол” (Bolalar maktublari), “Мухтасари таърихи ислом” (Islomning qisqacha tarixi), “Мадхали ҷуғрофияи умронӣ” (Aholi geografiyasiga kirish), “Мухтасари ҷуғрофияи русӣ” (Rossiyaning qisqacha geografiyasi) каби дарсliklarini yaratdi. Behbudiyning bu kabi darsliklar va qo'llanmalarni yaratishdan yagona maqsadi ta'lim sifatini oshirish edi. Uning yozgan darsliklari tushunarli va sodda tilda bo'lib, o'quvchilarga murakkab mavzularni oson o'zlashtirishga yordam berdi.

Savod alifboden boshlanadi. Shu sababli jadid pedagoglari "usuli savtiya" metodida faoliyat ko'rsata boshlagan maktablar uchun alifbo darsliklari yaratishga e'tiborini qaratdilar. Jadid pedagoglari orasidan birinchi bo'lib Mahmudxo'ja Behbudiy ushbu usul zaminida Turkiston o'lkasida tojik tilidagi ilk alifbo darsligini yaratdi va uni "Рисолай асбоби савод" deb nomladi. Muallif alifbo darsligini bosmadan chiqarishdan avval bir yil mobaynida Abdulqodir Shakuriy maktabida tajribadan o'tkazadi, alifboga ba'zi bir o'zgartirishlar, yangiliklar kiritadi va uni 1905-yilda Samarqandda nashrdan chiqaradi. Bu haqda Behbudiy asar muqaddimasida quyidagilarni yozadi: "Janobi fazilatpanoh maktabdorlar, muallimlar, shogirdlar murabbiylar, Sizlarga murojaat va arz qilurman. Kaminaning "Asbobi savod" ("Savod qo'llanmasi") nomli ushbu risolasi shogirdlarning qisqa muddatda o'qish va yozishni o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, bir necha bor sinovdan o'tkazilgandir. Faqirning yetti yasharli o'g'li Mas'udxo'ja ham shu qo'llanmada tez savodini chiqardi va takomillashtirdi". Ushbu alifbo yangi usul maktablari uchun darslik sifatida bir necha bor nashrdan chiqarildi va ko'proq Buxoro, Samarqand maktablarida 1920-yillarga qadar asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi. Muallif asar yakunida bolalarni xat-savodini chiqarish, fikrini yozma bayon qilish, yozuvga o'rgatish maqsadida husnixatdan namunalar keltirib o'tadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning muhim darsliklaridan yana biri "Kitobat ul-atfol" hisoblanadi. Ushbu kitobni "Bolalar maktublari" deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki kitobda bolalarni turli mazmundagi rasmiy, norasmiy, xususiy xatlar yozishga o'rgatish, yozma nutqini o'stirish masalalari atroflicha tahlil qilingan, bolalarning turli mazmun va maqsadda yozilgan maktublaridan chiroyli namunalar berilgan. "Kitobat ul-atfol" usuli jadid maktablari shogirdlari uchun maxsus darslik sifatida yaratilgan bo'lib, birinchi nashri 1908-yilda, ikkinchi nashri 1914-yilda bosmadan chiqarildi.

Behbudiy jadid maktablarida dunyaviy bilimlarni o'qitish bilan birlgilikda diniy ta'limotni ham aslicha o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan edi. Boisi ko'p madrasa va eski usul maktablarida chalasavod domullalarning diniy ta'limoti o'z asliyati bilan o'rgatmaslik oqibatida o'quvchilarning savodsiz bo'lishiga sabab bo'lgan. Matematika, geografiya, tabiatshunoslik, tarix, til va adabiyot kabi fanlarni o'quv dasturiga kiritdi. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni zamонавиy dunyoda raqobatbardosh qilib tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qildi. Boshqa jadid

mutafakkirlari kabi Behbudiy ham geografiya fanini o‘qitish masalasiga alohida e’tibor bergan. Uning bu fanga oid “Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy” 1906-yilda Samarqandda nashrdan chiqarilgan. Behbudiy darsligining muhim ma’rifiy va metodik jihatlari shundaki, muallif darslikni yaratishda Turkiston aholisining geografiya va unga aloqador fanlar bo'yicha bilim saviyasini e'tibordan chetda qoldirmagan. Darslikda keltirilgan geografik jarayonlar metodik jihatdan juda to‘g’ri yo‘l edi, chunki xalqimizning XX asr boshlaridagi geografiya fani yuzasidagi o‘quvchilar bilimini sezilarli darajada ko‘tarildi. Ushbu misollar orqali muallif darslikni Vatan o‘lkashunosligi ma’lumotlari bilan bog‘laydi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarda ona-Vatanga bo‘lgan muhabbat, faxr tuyg‘ularini shakllantirishda uni asrab-avaylashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishga ko‘maklashadi.

Behbudiy o‘zining yangi uslubdagi maktablari orqali O‘rta Osiyoda ta’lim tizimining zamonaviylashishiga va ijtimoiy islohotlarga katta hissa qo‘shti. Behbudiyning ma'rifatparvarlik faoliyati natijasida ko‘plab yoshlar zamonaviy bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ldilar, bu esa keyingi avlodlarning madaniy va ilmiy rivojlanishiga zamin yaratdi. Behbudiyning mehnati va jasorati har doim yodda saqlanadi va uning islohotlari ta’lim tizimining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Abdirashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy [Matn]: risola.- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 156b.
2. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent:. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
3. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O‘zbekistonning yangi tarixi Markazi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.
5. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent - 2001.